

**IJTIMOYIY TARMOQLARDA MULOQOTLAR VA HAQIQIY VOQEYLIK, ULARNING
GENDER HUSUSIYATLARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10367768>

Raxmonova Barnoxon Odilovna

*AVPYMO'M markazi tillarni o'qitish
metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ijtimoiy tarmoqlarda muloqotlar va haqiqiy voqeylik, ularning gender hususiyatlarini yoritish lingvistik gendereologik tahrir va ijtimoiy tarmoqlarning inson hayotidagi o'rni yoritilgan.*

Kalit so'zlar; *Internet, ijtimoiy tarmoq, gender hususiyatlar, muloqot madaniyati, sotsiyo lingvistika, leksema, virtual.*

Bugungi kunda yorug' olamda yashab turgan insonni hayotida ijtimoiy tarmoqning o'rni beqiyos malumki ijtimoiy tarmoq muloqot vositasi do'st orttirish yangiliklardan habardor bo'lish, ma'lumotlar to'plash, tajriba almashish o'rganish bilish va yana ko'plab imkoniyatlarga ega bolish uchun eng yaxshi vosita deb etirof etiladi. Yillar davomida globallashuv jarayonlarida internet tarmog'i ham jadal suratlarida kengayib bormoqda. Dastavval, internet ma'lumot ulashuvchi ta'minlovchi vosita bo'lgan bo'lsa bugunga kelib insonlar orasidagi muloqot virtual makonning yetakchisi, guruhlar aro muloqot ijtimoiy tarmoqlar blogerlar muloqotining o'ziga hos vositasiga aylandi. Internet muloqot deganda, ikki yoki undan shahslarning internet orqali muloqoti yozma habar, tezkor fikr – mulohazalar bilan elektron habarlarni tushuniladi. Ikki yoki undan ortiq kishilarning axborot olish va almashish jarayoniga o'zaro tasiri birgalikda faoliyatlarini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan suhbatdoshga u yoki bu jihatdan tasir ko'rsatish hisoblanadi. Internetdan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Insoniyat tarixida misli ko'rilmagan axborot tezligi davrida ijtimoiy tarmoqlar orqali bo'layotgan muloqotlar asli vertualdir. Shu jihatdan bunday muloqotlar shariyat chegarasidan chiqmasligi odob doirasida bo'lishligi hududdan chiqib ketmasligi ta'lab etiladi. Zero, kundali hayotimizda insonning hayotiga ijtimoiy tarmoqlarning juda katta ta'siri borligi ayon bo'lib turgan masala.

Chunki odamlar uchun qadri va ahamiyatli ma'lumotlar internet tarmoqlarida tarqalayotgan habarlar axborotlar ma'lumotlar milinlab odamlar internetga muntazam qolganligi uchun virtual berilib haqiqiy voqeylikdan uzulib qolmoqdalar aksar holatlarda internet tarmoqlari ishdan qoldiradi qimmatli vaqtlarini oladi oiladan chalgitadi tinchligini buzadi internetdan kompyuterdan habari bor odamki vaqtini, umrini be foyda muloqotlarga sarflamoqdalar. Jahon miqiyosida ijtimoiy tarmoqlarga g'arb bo'lish soat sayin o'sib bormoqda.

Demak kitoblardan ko'ra insonlarning kattayu kichigi virtual muloqotga bo'lganligi haqiqiy hayotdan jiddiy farq qiladi. Masalan:ota ona nilan quchoqlashib, mehriban berib, ko'z ko'zga tushib "assalomu alaykum", "Salomatmisiz", "Men sizni yaxshi ko'raman", "sizga nima kerak", "Nimalar olib beray" degan jonli muloqot o'rnini telefon telegram, muloqoti bosa olmaydi. Do'stlar sinfdoshlar sevgilisi bilantelefon muloqotlari asta sekin vaqt va masofani yanada uzoqlashtiradi har hil smayillar sovg'alar gullar vahakazolar tabiiy muloqotning tabiiy gulning haqiqiy sovganing o'rnini bosa olmasligi tayin.

Insoniy tuygularini , dil izhorlarini hayotiy muloqoti cheklanganligi isbotlaydi.

Odamzod xaqiqiy munosabatga ham muhtoj. Hol so'rash , kino ,teatr ,muzeylarga borish istirohot bog'laridagi suhbatlar shular jumlasidandir internet afzalliklarga ega lekin uning muloqotga ta'siri munosabatlarga ta'siri vergul makon va zamonga salbiy ta'sirlari mavjud. Uning ijobiy taraflari ko'pligi barchaga ma'lum. Juda ko'p oilalarda er va xotin munosabatlari ulardan birining ijtimoiy tarmoqlardan voz kecha olmayotganligi do'stlashishga intilishi, tanishishni hohlashligi orqali muloqot chegaralaridan chiqish holatlari sababidan ajrashishlar , hiyonat , janjallar va inson salomatligida gormanal o'zgarishlar yuz bermoqda haqiqiy hayotiy muloqot jonli so'zlashuvga kam vaqt ajratib insoniyatning ongiga tasir etib internetga mukkasidan ketganligi uchun yolg'izlik baxtsizlikni chuna boshlaydi aslida kompyuter insonlarning imkoniyatlarini kuchaytiradigon birgina uskuna , undan oqilona foydalanib bilishni maqsad qilmoq lozim.

Bu holatda ilmda jamiyatning eng kichik bo'g'ini bo'lgan oilada er xotin muloqoti, yani gendere ologik husisiyatlarni jiddiy tahlil qilishimizga to'g'ri keladi. Internet muloqotida gender hususiyatlar ham, keng manoda , virtual hayot bilan haqiqiy hayot muloqotlaridagi farqni ochib beradi.

Ayollar va erkaklar muloqotida qanday til birliklarining qo'llanilishi haqida o'rganuvchi yangi soha mavjud bo'lip, u gender ligivistika deyiladi. Internet tarmog'ida mazkur sohaga oid masalalarni o'rganadigon bo'lsak virtual hayotda genderlingvistika qanday talqin qilinayotganligi ayon bo'ladi. Ayol nozik hilqat, biroq muloqot paytida undan kuchli yaratilmish yo'q asta – sekin, bir boshidan Shoshilmay qisqa tushuntirishlarni qo'shib , suhbatdoshini kamroq tinglang , o'zi ko'proq so'zlaydigon muloqotni internetda ham telefon suhbatida ham amalga oshira oladi. Erkaklar esa jisman baquvvat biroq aniq va lo'nda qisqa kam vaqt sarf qiladigon muloqotga o'rganganlar. Ayollar voqeani mubolag'a bo'rtirib , ba'zan ma'lumotlarni ham rostday qilib ishontira oladilar.

Erkaklar esa hech qanday mubolag'asiz muloqotni amalga oshirib ham o'z nutqining mazmunini anglata oladi . Ayollar muloqotni o'z fikri bayoni bilan yakunlashni tezgina amalga oshirdim deb o'ylashadi, vaqt o'tganligini ham sezmay qolishadi. Erkaklarda aksincha eshituvchi bo'lishni yoqtiradilar. Shu manoda ayollar va erkaklarning muloqot madaniyati internet tarmog'ida ham o'ziga hosligi bilan ajralib turadi

Aksariyat yoshlar o'zlarining qimmatli vaqtlarini behuda sarflab, ijtimoiy tarmoqlardan kun bo'yi foydalanishadi. Shu tariqa, ular deyarli barcha axborotga ega bo'lishadi va o'z dunyoqarashidan kelib chiqib, u yoki bu masalaga munosabat bildirishadi. Biroq bildirilgan

munosabatlarning barchasini saviyali, ya'ni ma'naviyatli kishilarning fikri, deb bo'lmaydi, albatta. Ayniqsa, bugungi kunda etarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lmagan kimsalar ham to'g'ri yo noto'g'riligini o'ylab o'tirmasdan, ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilgan har qanday ma'lumot yuzasidan yoxud ba'zi masalalarga bilim va salohiyati etadimi, yo'qmi, bundan qat'i nazar, o'z fikrini bildirishadi. Yoki o'zlarining yozgan «asarlari» yo »maqola», «xabar», «she'r»larini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib, bir-birlarini ko'klarga ko'tarib maqtashadi.

Qizig'i shundaki, ba'zi odamlar aslida shu ishni qilish kerakmi, yo'qmi, degan ishtibohga ham bormaydi. Ijtimoiy tarmoqlarda havola etiladigan ma'lumotlarni «bezab turgan» g'aliz jumlar hamda imloviy xatolar o'sha tarmoq foydalanuvchisining saviyasi qay darajada ekanligini ko'rsatib turadi. Bu esa ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarida ham afsuslanish, achinish holatlarini keltirib chiqaradi. Ba'zida esa ijtimoiy tarmoqlar orqali havola etilayotgan asossiz va saviyasiz ma'lumotlarning sanab adog'iga ham etib bo'lmaydi.

Ayniqsa, tarmoqlarda shunday guruhlar ham paydo bo'lganki, foydalanuvchilar bir-birini maqtab ko'kka ko'tarishlari, shuningdek, kimlarningdir nomini loyga chaplashlari oddiy holga aylanib bormoqda. G'iybat ular uchun oddiy holga aylangan. Ba'zi kimsalar esa ijtimoiy tarmoqdan o'zlariga yoqmagan odamlarning obro'sini to'kish, erga urish, buning uchun bor imkoniyatidan foydalanishga harakat qilishadi. Ijtimoiy tarmoqlarni nazoratga olish imkoniyati yo'qligi bois, unda har qanday ishni qilish mumkin, deb o'ylashadi. erkin fikr aytish imkoniyatidan shunday yo'llar bilan foydalanish mumkin deganlar, saviyalari qay darajada ekanliklarini katta auditoriyaga shunday yo'llar bilan oshkor qilishadi. Shu sabab ko'pchilik bu tarmoqlarni yoqtirishmaydi. Lekin shunga qaramay, statistik ma'lumotlarga nazar solsak, dunyo yoshlarining 96 foizi ijtimoiy tarmoqlar vositasida o'zaro muloqotga kirishishmoqda.

Xo'sh, ijtimoiy tarmoq nima o'zi, uning qanday turlarini bilamiz?

Olib borilgan axborot-tahliliy natijalar va statistik ma'lumotlarga ko'ra, Facebook hozirgi vaqtda dunyoda eng mashhur ijtimoiy tarmoq sifatida etakchi o'rinda bormoqda. Bugungi kunga kelib, Facebook tarmog'ida ro'yxatdan o'tganlar soni bir necha milliard kishidan ortganligi ma'lum qilingan. Undan keyingi o'rinlarni esa Twitter, Instagram, LinkedIn, Google+, Pinterest, Snapchat, YouTube, Reddit, WhatsApp, Flickr, Weibo egallab kelmoqda.

Kishining ta'bini xira qiladigan jihati, ijtimoiy tarmoqlar orqali «ommaviy madaniyat» niqobi ostida yurtimizga buzuq g'oyalar, axloqsizlik, g'ayriinsoniy odatlar kirib kelmoqda. Millatning tarixi, o'tmishdagi qadriyatlarini rad etuvchi, «ommaviy madaniyat»ni targ'ib etishga undovchi mafkuraviy kurashlarning barchasi aynan ijtimoiy tarmoqlar orqali olib borilmoqda. Zero, ijtimoiy tarmoqlar tubanlik girdobiga giriftor etuvchi mafkurachilarining asosiy dastaklaridan biri ekanligi hech kimga sir emas. Binobarin, bu holat har birimizdan tahdidlarga nisbatan muntazam ogohlikni talab etmoqda.

Inson ongi, qalbi va ruhiyatiga tazyiq o'tkazishga harakat qilayotgan g'arazli kuchlar axborot xurujlarini amalga oshirishda eng ta'sirchan vositalar sifatida internet tizimi va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanishmoqda. Ayni paytda internet va ijtimoiy

tarmoqlar orqali tarqatilyotgan milliy ma'naviyatimizga yot g'oyalar va axborot xurujlarining yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari kishini tashvishga solmoqda.

Qayd etish joizki, «ommaviy madaniyat» namoyon bo'lish xususiyatlariga ko'ra, til, din, e'tiqod, irq, makon, xalq va millat tanlamaydi. U jamiyatning madaniy va estetik qadriyatlariga raxna solish orqali ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik tamoyillarini buzadi. Zero, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishda, albatta, barchamiz media xavfsizlik haqida, G'arb davlatlari olib borayotgan mafkuraviy kurash turlari haqida ma'lumotga ega bo'lishimiz va buni yoshlarga o'rgatishimiz lozim. Axborot xurujida inson ongi, millat ruhiyati nishonga olinadi. Aslini olganda, axborot xurujlarini amalga oshirishda, avvalo, inson ongi va qalbini zabt etish orqali mafkuraviy ta'sir o'tkazish g'oyasi yotadi. Mazkur holat davlatlarning barqarorligiga raxna solib, millatning tarixan shakllangan qadriyatlari, uning o'ziga xosligi, millat va xalq sifatida yashab qolishini xavf ostiga qo'yadi. Ijtimoiy tarmoqlar orqali g'oyaviy-mafkuraviy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan yovuz va buzg'unchi g'oyalar ta'sirini o'z vaqtida anglash, ulardan doimo ogoh bo'lish bugungi kunning dolzarb vazifasi ekanini har bir yurtdoshimiz, birinchi navbatda, yosh avlod vakillari chuqur anglab etishlari lozim bo'ladi. Jamiyatda ayollar bilan erkaklar vazifasi, kasbi, jamiyatdagi o'rnini, hunari, va dunyo qarashi jihatidan farq qilgani kabi, lingvistik nuqtaiy nazaridan ham har ikkala jins o'zaro farq qiladi. Bu ikki jins vakillarida lisoniy va no lisoniy birliklarning ularga nisbatan qo'llanilishi, o'zlari mazkur birliklaridan foydalanganda ham har ikki jins vakillarida katta farq kuzatiladi. Ayollarda mano urg'usi kuchli qo'llaniladi lekin oraliq to'xtam erkaklarga nisbatan juda qisa bo'ladi. Ayol va erkaklar muloqotida leksenalar ham o'ziga hos ravishda ahamiyatlidir. Ya'ni kasb hunarga oid ilmiy leksenalar erkaklar nutqida ko'proq ishlatiladi. Ayollar rasmiy munosabatlarda kundalik turmushda foydalangan gealogizm muloqotga unumli ravishda qo'shadilar. Ayollar nafosatli bo'lishi tabiiy bo'lgani kabi muloqot jarayonida ham buyoqdor va jozibador leksenalar shahsiy munosabat ifodalovchi so'zlarni ijobiy bo'yoqdor ko'proq qo'llaydilar. Hayratlanishi qo'rqish xursand bo'lish zavqlanish xafa bo'lish nafratlanish kabi emotsional ruhiy fiziologik jarayonlarni ko'rish eshitish mumkin. Shuningdek erkaklar va ayollarning muloqot madaniyati borasida ularni o'ziga hosligi farqli tomonlari tahlili tilshunoslikda bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Muhim ahamiyatga ega bo'lgan bunday farqlanish muloqot madaniyatini ayrim ko'rinishlarini ochib beradi.

Erkak va ayol muloqotining jins jihatidan hoslanishi satsional lingvistikaning o'rganilishi zarur bo'lgan muommolaridan biridir. Murojat shakllarini jins jihatdan tahlil qilinganda har ikkala jins o'rtasida bo'ladigon murojat shakllari va bir biriga qo'llanadigan murojat shakllariga ajratish mumkin olimlarimiz murojat shakllarini ikki turga ajratishgan.

1-mavhum murojat shakllari (hoy, e, sen, siz);

2-konkrent murojat shakllari (ism, laqab, tahallus, insonni belgisini bildiruvchi leksik atovchi, kommunikativ birliklar murojat shakllari vazifasini bajaradi);

Yer yuzidagi erkak va ayol murojati turli leksenalar bilan izoxlanadi. Hindistonda “babuni” babu o‘zbekistonda “dadasi” angilyada “jon” o‘zbeklarda “dadajonisi, bobosi otasi bobojonisi buvasi kabi hurmat ehtirom bilan “ murojat so‘zlari ishlatiladi. Zero mano va tushunchalarsiz til mavzu bo‘lmaydi til o‘zini vazifasini mano va vazifalaridan chiqib bajariladi. Habar ma’lumot mano kabi tushunchalar asosida til shakillanadi inson jamiyat degan tushunchalar ham mano til va nutq tufayli yuzaga chiqadi butun bir jamiyat kishilari uchun tushunarli til bo‘lmasa nutq va muloqot bo‘lmasa ishlab chiqarish sanoat qurulish obodchilikta’lim tizimi vahakazolarga jiddiy putr yetadi xulosa qilib aytgandainternet tarmogidagi gender hususiyatlar farqi jihatlariga ega bo‘lib ularni o‘rganish va insoniy jihatdagi tahlil qilish jamiyatda muloqotlantirishga manaviy yuksalish shu asosda nutqiy etiketni mustahkamlashga yuksalish insoniy munosabatlarda manaviy yuksalishga zamin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI :

1. Abdullayeva, S., & Eshmuradov, O. (2023). Профессиональное самоопределение и выбор профессии учащимися в психологическом знании. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8395>

2. Norbosheva, M. (2022). О ТЕХНИКЕ НАЧАЛА РАЗГОВОРА С КЛИЕНТОМ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ КОНСУЛЬТИРОВАНИИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7456>

3. Норбошева М.А. Игра в жизни человека и развитии ребенка // Психология № 2, 2014 с. 72-78

4. Jabborov, X., & Eshmuradov, O. (2023). ШАРҚ МУТАФАККИРЛАРИ ИШЛАРИДА МИЛЛИЙ ТАРБИЯ МАСАЛАСИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8394>

5. Norbosheva, M. (2022). МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛА ШАХСИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7459>

6. Eshmurodov, O. (2022). ЎЗБЕК ОИЛАСИ МУСТАҲКАМЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ . Журнал 43 Педагогики и психологии в современном образовании, 2(6). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7449>

7. Норбошева, М. А. (2021). ОИЛАВИЙ МУНОСАБАТЛАРНИНГ ТАЪЛИМТАРБИЯ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИРИ: DOI: <https://doi.org/10.53885/edinres.2021.26.88.050> Норбошева Мехри Ачиловна ТерДУ Педагогика институти Психология кафедраси

мудири Психология фанлари номзоди, доцент. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (1-Махсус сон), 165-169.

8. Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. Наука и образование сегодня, (7 (66)), 66-67.